



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

BUYUK IPAK YO‘LI VA ARAB SAYYOHLIK AN‘ANALARINING SHAKLLANISHI

Rashidova Feruza Shomuxammedovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, dotsent (PhD)

Burhonova Mehrangiz Oybek qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Maqolada Buyuk Ipak yo‘lining o‘rta asrlardagi rivojlanish bosqichlari va arab sayyohlik an‘analarining shakllanishi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Arab xalifaligining kengayishi, savdo munosabatlari va Islom sivilizatsiyasining yuksalishi “Rihla” (sayohatnoma, safarnoma) janrining paydo bo‘lishiga olib kelgani ko‘rsatilgan. Tadqiqot Ibn Fadlan, Al-Xorazmiy, Ibn Battuta kabi sayyohlar va olimlarning asarlarini o‘rganish orqali madaniy-iqtisodiy almashinuv jarayonlarini chuqur yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Buyuk Ipak yo‘li, arab sayyohlari, rihla, geografiya, savdo aloqalari, madaniy almashinuv, karvon yo‘llari, xaritalash.

ФОРМИРОВАНИЕ АРАБСКИХ ТРАДИЦИЙ ПУТЕШЕСТВИЙ НА ВЕЛИКОМ ШЕЛКОВОМ ПУТИ

Рашидова Феруза Шомухаммедовна

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова, доцент (PhD)

Бурхонова Мехрангиз Ойбек кизи

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова, магистрант 2 курса

Аннотация

В статье на основе исторических источников анализируется неразрывная связь между этапами развития Великого Шелкового пути в средние века и формированием традиций арабских путешествий. Показано, что расширение Арабского халифата, торговые отношения и подъем исламской цивилизации привели к появлению жанра «рихла». Исследование глубоко освещает процессы культурно-экономического обмена через изучение трудов таких путешественников и ученых, как Ибн Фадлан, Аль-Хорезми, Ибн Баттута.

Ключевые слова: Великий Шелковый путь, арабские путешественники, рихла, география, торговые связи, культурный обмен, караванные пути, картография.

THE FORMATION OF ARAB TRAVEL TRADITIONS ALONG THE GREAT SILK ROAD

Rashidova Feruza Shomuxammedovna

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Associate Professor (PhD)

Burhonova Mehrangiz Oybek qizi

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, 2nd-year Master’s Student

Abstract

The article analyzes the inextricable link between the stages of development of the Great Silk Road in the Middle Ages and the formation of Arab travel traditions based on historical

sources. It is shown that the expansion of the Arab Caliphate, trade relations, and the rise of Islamic civilization led to the emergence of the “rihla” genre. The research highlights cultural and economic exchange processes through traveler works.

Keywords: Great Silk Road, Arab travelers, rihla, geography, trade relations, cultural exchange, caravan routes, mapping.

Buyuk Ipak yo‘li insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi eng ulkan va uzoq muddat faoliyat yuritgan mintaqalararo savdo magistralli hisoblanadi. Miloddan avvalgi II asrda shakllangan ushbu yo‘l Xitoyning qadimiy poytaxtlaridan boshlanib, Markaziy Osiyo, Eron, Yaqin Sharq orqali Yevropagacha cho‘zilgan. O‘rta asrlarga kelib, ayniqsa VII-VIII asrlardan so‘ng, Arab xalifaligining kuchayishi va islom dinining keng yoyilishi natijasida Buyuk Ipak yo‘lidagi xalqaro munosabatlar tamoman yangi bosqichga ko‘tarildi. Arab savdogarlari, sayyohlari va olimlari ushbu yo‘lning g‘arbiy va markaziy tarmoqlarida faol ishtirokchilarga aylanib qolmasdan, balki uni chuqur o‘rganuvchi va tadqiq etuvchi yetakchi kuchga aylandilar [1, 45-bet].

Ilk o‘rta asrlarda xalifalikning iqtisodiy va siyosiy jihatdan yuksalishi uzoq o‘lkalar haqidagi aniq geografik, etnografik va iqtisodiy ma‘lumotlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Davlatni boshqarish, soliq tizimini tartibga solish, pochta aloqalarini yo‘lga qo‘yish kabi ma‘muriy ehtiyojlar arab sayyohlik an‘analarining ilk kurtaklari shakllanishiga turtki berdi. Vaqt o‘tishi bilan bu ehtiyojlar sof ilmiy va kognitiv qiziqishlar bilan uyg‘unlashib, arab adabiyotida yangi bir mustaqil janr – “Rihla” (sayohatnoma, safarnoma) janrining vujudga kelishiga zamin yaratdi [2, 112-bet].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Buyuk Ipak yo‘lidagi mintaqalararo savdo aloqalarining arab sayyohlik an‘analariga qanday ta‘sir ko‘rsatganini va o‘z navbatida arab sayyohlarining Markaziy Osiyo va jahon tarixiga oid ma‘lumotlarni yozib qoldirishdagi beqiyos hissasini tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab sayyohlari va ularning asarlari bo‘yicha jahon tarixshunosligida katta fundamental izlanishlar olib borilgan. Akademik I.Yu. Krachkovskiyning «Арабская географическая литература» asari muhim sanalib, unda arab sayyohlari va geograflarining barcha avlodlari, ularning asarlari tuzilishi tizimli tahlil qilingan [1, 210-bet] bo‘lsa, V.V. Bartoldning tarixiy-geografik asarlarida xalifalik davridagi savdo yo‘llari, shahar va qishloqlar, daryo va voha tizimlari haqida arab manbalari asosida qimmatli xulosalar berilgan [3, 118-bet].

O‘zbekistonlik olimlardan H. Hasanov o‘zining “Sayyoh olimlar” asarida Markaziy Osiyo va arab dunyosi o‘rtasidagi ilmiy va sayyohlik aloqalarini chuqur o‘rgangan bo‘lsa [2, 54-bet], A. Xo‘jayev Buyuk Ipak yo‘lining Xitoydan tortib to Yaqin Sharqqacha bo‘lgan tarmoqlarida diplomatik va savdo munosabatlarining arab dunyosi bilan kesishish nuqtalari bo‘yicha ma‘lumot berib o‘tadi [4, 88-bet].

G‘arb tarixshunosligida H.A.R. Gibb [7, 45-bet] va R.E. Dunn [9, 112-bet] kabi olimlar arab sayyohlarining asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish barobarida, ushbu manbalarni sivilizatsiyalararo dialogning yorqin namunasi sifatida talqin qilganlar. Biroq, sayyohlik an‘analarining shakllanishini bevosita Buyuk Ipak yo‘lidagi logistika va iqtisodiy infratuzilma rivoji bilan bog‘liq holda o‘rganish bo‘yicha maxsus tahlillar nisbatan kamroq uchraydi va bu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, xronologik va retrospektiv yondashuvdan foydalanildi. Arab sayyohlarining ilk asarlari (IX-X asrlar) bilan keyingi davr (XIII-XIV asrlar) yozuvchilari asarlari o‘rtasidagi uslubiy va mazmuniy evolyutsiya solishtirildi.

Shuningdek, birlamchi manbalarni matnli (tekstologik) tahlil qilish metodidan foydalanildi. Ibn Fadlan, al-Istaxriy, Ibn Havqal, al-Muqaddasiy va Ibn Battuta kabi sayyohlarning asarlari tarjimalari asl nusxadagi ma‘no-mazmun bilan chog‘ishtirilib, ularda tilga olingan

toponimlar, masofalar o'lhovi (farsang, kunlik yo'l), savdo tovarlari ro'yxati statistik va geografik modellashtirish usullari yordamida umumlashtirildi. Tadqiqot obyektivlik tamoyiliga tayangan holda, voqea va hodisalarni o'z davrining tarixiy realliklari doirasida baholashga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Arab sayyohlik an'analarining shakllanishini uchta asosiy davrga bo'lib o'rganish mumkin: birinchi bosqich (VIII-IX asrlar) – asosan ma'muriy va savdo yo'riqnomalarining paydo bo'lishi; ikkinchi bosqich (X asr) – mumtoz arab geografiyasi va “Al-masalik val-mamalik” (“Yo'llar va mamlakatlar”) janrining gullab-yashnashi; uchinchi bosqich (XI-XIV asrlar) – sof sayohatnoma (rihla) janrining yetuklikka erishuvi [1, 315-bet].

Buyuk Ipak yo'lining arab sivilizatsiyasiga ta'siri dastlab tijorat qiziqishlari bilan bog'liq edi. Xalifalik Xitoy ipaklari, Hindiston ziravorlari, Markaziy Osiyo qog'ozi va qurollari, shuningdek, Sharqiy Yevropa mo'ynalariga katta ehtiyoj sezardi. Shu sababli, savdo karvonlarining doimiy qatnovi maxsus yo'l ko'rsatkichlari – itinerariy (yo'l noma, marshrut ko'rsatkichi, yo'nalishlar xaritasi) larni yozishni taqozo qildi. Masalan, Ibn Xurdodbehning “Kitob al-masalik val-mamalik” (“Yo'llar va mamlakatlar kitobi”) asari aynan Bag'dod markazlashgan pochta va razvedka xizmati boshlig'i tomonidan yozilgan bo'lib, unda Xitoygacha bo'lgan quruqlik va dengiz yo'llari, har bir bekat orasidagi masofa mufassal keltirilgan [6, 115-bet].

Ibn Fadlanning Shimoliy yo'l bo'ylab safari. X asrning birinchi yarmida (921-922 yillar) Abbosiylar xalifasi al-Muqtadir tomonidan Volga (Idil) bulg'orlari yurtiga yuborilgan elchilik karvoni tarkibida Ibn Fadlan ishtirok etdi. Bu elchilikning maqsadi siyosiy ittifoq tuzish va islom dinini yoyish bo'lsa-da, u Xorazm, Orol bo'yi dashtlari, o'g'uz va qipchoq qabilalari hududlari orqali o'tuvchi Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i haqida noyob ma'lumotlarni qoldirdi. Ibn Fadlanning “Risola”si (“Sayohatnoma”) o'z davrida turkiy xalqlarning e'tiqodi, urf-odatlari, dafn marosimlari va iqtisodiy aloqalari (ayniqsa, mo'yna savdosi) to'g'risida guvohlik beruvchi bebaho manbadir [5, 45-bet].

Markaziy Osiyodagi karvon yo'llarining rivojlanishi arab geograflari diqqat markazida bo'ldi. Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy (Al-Maqdisiy) kabi X asr olimlari o'zlarining uzoq yillik sayohatlari natijasida islom dunyosining batafsil iqtisodiy va geografik xaritalarini tuzib chiqdilar. Ularning asarlarida Movarounnahr – “Jayhun (Amudaryo) ortidagi o'lka” dunyodagi eng obod, savdo-sotiq qaynagan, xavfsiz karvon yo'llari va ko'p sonli rabotlar tarmog'iga ega hudud sifatida ta'riflanadi. Bu olimlar Ipak yo'lining Samarqand, Buxoro, Termiz kabi tugun shaharlaridagi bozorlarni, har bir shaharning o'ziga xos eksport mahsulotlarini ipidan-ignasigacha yozib qoldirishgan [3, 401-bet].

Markaziy Osiyodagi karvon yo'llarining rivojlanishi arab geograflari diqqat markazida bo'ldi. Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy (Al-Maqdisiy) kabi X asr olimlari o'zlarining uzoq yillik sayohatlari natijasida islom dunyosining batafsil iqtisodiy va geografik xaritalarini tuzib chiqdilar. Ularning asarlarida Movarounnahr – “Jayhun (Amudaryo) ortidagi o'lka” dunyodagi eng obod, savdo-sotiq qaynagan, xavfsiz karvon yo'llari va ko'p sonli rabotlar tarmog'iga ega hudud sifatida ta'riflanadi. Bu olimlar Ipak yo'lining Samarqand, Buxoro, Termiz kabi tugun shaharlaridagi bozorlarni, har bir shaharning o'ziga xos eksport mahsulotlarini ipidan-ignasigacha yozib qoldirganlar [3, 401-bet].

Ibn Battuta va “rihla” janrining taraqqiyoti:

XIV asrga kelib arab sayyohlik an'anasi o'zining eng mukammal namunasini marokashlik sayyoh Abu Abdulloh Muhammad ibn Battuta asarida topdi. U yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida Afrikaning shimoliy sohillaridan tortib to Xitoygacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Uning safari Oltin O'rda, Xorazm va Movarounnahr orqali o'tdi [9, 210-bet]. Ibn Battuta yozuvlari shuni ko'rsatadiki, mo'g'ullar istilosidan keyin ham Buyuk Ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, yagona ulkan imperiya (Chingizxon va uning vorislari davlati) doirasida savdo va sayohat uchun yanada qulay xavfsizlik sharoitlari (mo'g'ullar tinchligi, qit'alararo

barqarorlik davr) yaratilgan edi [10, 89-bet].

Sayyohlarning e'tibori nafaqat savdo karvonlariga, balki darveshlar (so'fiylar), ziyoratchilar harakatiga ham qaratildi. Makka va Madinaga haj qilish an'anasi ham sayyohlikning ommalashishiga katta hissa qo'shdi. Musulmonlar qayerda yashashidan qat'i nazar, hayotlarida bir marta bo'lsa ham Hijozga safar qilishga intilganlar. Bu omma harakati Ipak yo'lining karvonsaroylarida turli millat, elat vakillarining uchrashishi, bilim va tajriba almashishi uchun ulkan aloqa maydoni yaratildi [8, 156-bet].

Kartografiya va navigatsiya sohasidagi yutuqlar ham aynan sayyohlar va quruqlik karvonlaridan olingan empirik ma'lumotlar asosida shakllandi. Arab xaritalari dastlab Ptolemey an'analari asoslangan bo'lsa-da, keyinchalik bevosita sayyohlarning o'lchovlari natijasida takomillashib bordi. Iqlim nazariyasi va shahar koordinatalarini aniqlashda Al-Xorazmiy kabi mutafakkirlarning matematik hisob-kitoblari arab sayyohlari uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Bunday aniq yo'l xaritalari Buyuk Ipak yo'li bo'ylab savdo ekspeditsiyalarini rejalashtirayotgan savdogarlar uchun hayotiy muhim ahamiyat kasb etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tarixiy tahlil shuni xulosa qilishga imkon beradiki, Buyuk Ipak yo'li va arab sayyohlik an'analari bir-birini taqozo etuvchi va boyituvchi parallel jarayonlar sifatida rivojlangan. Ipak yo'lidagi faol tijorat va davlat xavfsizligi sayyohlar uchun zamin yaratgan bo'lsa, arab sayyohlari o'z asarlari orqali bu yo'lni butun islom va g'arb olamiga tanitdilar.

Arab sayyohlarining qoldirgan asarlari bugungi kunda O'rta asrlar tarixini, ayniqsa Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shaharsozligi, etnografiyasi va savdo aloqalarini o'rganishda hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan qimmatli birlamchi manbadir.

Ammo mazkur sohada hali ishlanmagan jihatlar ham talaygina. Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Hali o'zbek tiliga to'liq tarjima qilinmagan arab geograflarining (masalan, Al-Muqaddasiyning barcha jildlari) asarlarini ilmiy muomalaga kiritish.

2. Arab sayyohlari asarlarida keltirilgan karvon yo'llari yo'nalishlarini zamonaviy GAT (geografik axborot tizimlari) texnologiyalari yordamida elektron xaritalash va modellashtirish ishlarini kuchaytirish.

3. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun "Buyuk Ipak yo'li manbashunosligi" maxsus kurslarni joriy etish va unda arab manbalari ulushini ko'paytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература [Матн]. – М.: Восточная литература, 2004. – 919 с.
2. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар [Матн]. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – 240 б.
3. Бартольд В.В. Работы по исторической географии [Матн]. – М.: Наука, 2002. – 711 с.
4. Ходжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар [Матн]. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 280 б.
5. Ibn Fadlan. Sayohatnoma [Matn] / Tarjimon: A. Ahmedov. – Toshkent: Sharq, 2010. – 160 b.
6. Муминов А.К. История развития исламской культуры в Центральной Азии [Текст]. – Алматы: Дайк-Пресс, 2015. – 350 с.
7. Gibb Hamilton Alexander Rosskeen. Arabic Literature: An Introduction [Text]. – Oxford: Clarendon Press, 1963. – 182 p.
8. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097-1231) [Текст]. – М.: Наука, 1986. – 248 с.
9. Dunn Ross E. The Adventures of Ibn Battuta: A Muslim Traveler of the 14th Century [Text]. – Berkeley: University of California Press, 2004. – 359 p.
10. Golden Piter B. Central Asia in World History [Text]. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 192 p.